



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SEMANTIK TIZIMDA MA'NO IYERARXIYASI

Rashidova Umida Mansurovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, dotsent

Azamatova Sevinch Shuxrat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, talaba

Annotatsiya

Mazkur maqolada leksik ma'nolarning semantik tizimdagi o'rni, ularning o'zaro munosabatlari hamda tarkibiy tuzilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda bosh ma'no, asos ma'no va tobe ma'nolarning leksik birliklar tarkibidagi funksional xususiyatlari, semantik bog'lanishlari va iyerarxik munosabatlari yoritiladi. Shuningdek, genetik, etimologik, hosila va yasama ma'nolarning shakllanish jarayoni hamda ularning semantik tizimdagi o'rni ilmiy jihatdan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: semantik munosabatlar, semantik tizim, leksik ma'no, bosh ma'no, asos ma'no, tobe ma'no.

ИЕРАРХИЯ ЗНАЧЕНИЙ В СЕМАНТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

Рашидова Умида Мансуровна

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Институт языков и культуры народов Центральной Азии, доцент

Азаматова Севинч Шухрат кизи

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Институт языков и культуры народов Центральной Азии, студентка

Аннотация

В данной статье анализируется роль лексических значений в семантической системе, их взаимосвязи и структурная структура. В исследовании освещаются функциональные свойства основного значения, базового значения и подчиненных значений в структуре лексических единиц, их семантические связи и иерархические отношения. Также научно описан процесс формирования генетических, этимологических, производных и искусственных значений и их роль в семантической системе.

Ключевые слова: семантические отношения, семантическая система, лексическое значение, основное значение, базовое значение, подчиненное значение.

THE HIERARCHY OF MEANING IN THE SEMANTIC SYSTEM

Rashidova Umida Mansurovna

Institute of Languages and Culture of Central Asian Peoples, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Associate Professor

Azamatova Sevinch Shuxrat qizi

Institute of Languages and Culture of Central Asian Peoples, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Student

Abstract

This article analyzes the role of lexical meanings in the semantic system, their mutual relationships and structural structure. The study highlights the functional properties of the main meaning, basic meaning and subordinate meanings in the structure of lexical units, their semantic connections and hierarchical relationships. Also, the process of formation of genetic, etymological, derivative and artificial meanings and their role in the semantic system are scientifically described.

Keywords: semantic relationships, semantic system, lexical meaning, main meaning, basic meaning, subordinate meaning.

Semantik tizimni o'rganishda so'z ma'nosining ichki tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning lug'aviy boyligi turli ma'no qatlamlaridan tashkil topgan bo'lib, har bir leksik birlik o'z semantik tarkibida bosh, asosiy va tobe ma'nolarni mujassamlashtiradi. Ushbu ma'nolar o'zaro uzviy bog'langan holda leksik-semantik tizimning yaxlitligini ta'minlaydi hamda so'zning

nutqdagi qo'llanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Leksik ma'no til tizimining markaziy unsurlaridan biri bo'lib, u voqelikdagi predmetlar, hodisalar va tushunchalarning inson ongidagi aksini ifodalaydi. So'z ma'nosi tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib, kengayib yoki torayib boradi. Natijada bir leksema tarkibida birlamchi ma'nodan tashqari hosila, figurativ, bog'liq va boshqa turdagi ma'nolar shakllanadi. Bunday ma'nolar o'rtasidagi munosabatlar semantik tizimning iyerarxik tuzilishini yuzaga keltiradi. Semantik iyerarxiyada bosh ma'no markaziy o'rinni egallab, boshqa ma'nolarning shakllanishi uchun asos vazifasini bajaradi. Tobe ma'nolar esa bosh ma'no bilan semantik bog'liqlik asosida yuzaga keladi va uning turli ko'rinishlarini namoyon etadi. Shu jihatdan leksik birliklarning genetik, etimologik, hosila va yasama ma'nolarini o'rganish tilning semantik taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mashhur tilshunos olim Ferdinand de Sossyur tilni o'zaro bog'langan belgilar tizimi sifatida talqin qiladi. Ushbu qarash semantik tizimni ham yaxlit munosabatlar majmui sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Zero, har bir ma'no turi boshqa ma'nolar bilan aloqador holda mavjud bo'lib, ularning o'zaro munosabati tilning semantik boyligi va funksional imkoniyatlarini belgilaydi.

METADOLOGIYA

So'zning ma'no jihati haqida fikr bildirishdan avval, har bir tilda ma'no uchun keltirilgan izohlar va ularning talqin qilinishidagi farqlar mavjudligini, ayrim tillarda mazkur tushuncha ikki xil ma'noda qo'llanishi uchrasa, boshqa tillarda uch va undan ortiq ma'noda ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Aytaylik, o'zbek tilida ushbu tushuncha quyidagicha izohlanadi: **Ma'no** – [mazmun, tushuncha, g'oya]: 1. So'zning mazmun tomoni, so'z bilan ifodalanган tushuncha... 2. Ayn. mazmun. 3. Ba'zi xatti-harakat va shunga ko'rallardan anglashiladigan narsa, ifoda. Biror narsaning mohiyati, nima ekanligi; mohiyat [1, 18].

So'z ma'nosining ifodalanishida uning narsa va tushuncha bilan bog'liqligi yuzasidan qarashlar lingvistikada keng ommalashgan. Bu jihatdan so'z ma'nosining narsaga, tushunchaga va boshqa so'z ma'nosiga munosabati tufayli uning funksiyasi ham farqlangan. Natijada so'z ma'nosining denotativ, signifikativ va struktural funksiyalari shakllangan. Masalan, so'z ma'nosining asosiy funksiyalari sifatida: ma'no1 – tushuncha1 (yoki ma'no2 – narsa2) – denotativ funksiya; ma'no1 – tushuncha1 (yoki ma'no2 – tushuncha2) – signifikativ funksiya; ma'no1 – ma'no2 (yoki ma'no2 – ma'no1) – struktural funksiya tarzida izohlanadi [2, 103].

So'z hamma vaqt o'z genetik ma'nosiga asoslanib yuzaga kelgan yoki yasalgan bo'ladi. Undan keyinchalik hosila ma'nolar ham yaratilishi mumkin. Shu so'zdan yana so'z yasalar ekan, uning genetik va hosila ma'nolaridan yasama ma'nolar yasaladi. O'zak so'zning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar ham o'zaro aloqador, ya'ni bog'liq bo'ladi. So'zning leksik ma'nolari ana shu o'zaro aloqadorligiga ko'ra uch tipga: bosh ma'no, asos ma'no, tobe ma'nolarga bo'linadi.

1. Bosh ma'no. So'z leksik ma'nolarining o'zaro bog'lanishlari markazida turgan leksik ma'nodir. Ya'ni so'zning leksik ma'nolari bevosita yoki bilvosita bog'lanib keluvchi, tutashuvchi leksik ma'no tilshunoslikda bosh ma'no deb qaraladi. Masalan, *kurash* so'zining leksik ma'nolari tarkibi va ularning o'zaro bog'lanishini ko'ramiz.

Kurash so'zining ma'nolari:

1. Yiqitish, g'olib chiqish uchun ikki kishi o'rtasidagi ma'lum qoidaga asoslangan olishuv, o'zaro bellashuv.
2. Yiqitishga asoslangan bellashuvlarning umumiy nomi, sport turi.
3. Sportning biror turi bo'yicha kuch, mahorat, ustunlik ko'rsatish uchun bo'lgan musobaqa.
4. Qarama-qarshi bo'lgan tomonlar o'rtasidagi ustun kelish, g'alaba qilishga qaratilgan to'qnashuv, olishuv, jang.
5. Biror narsaga erishishga, biror maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat, xatti-harakat.
6. Biror kimsa yoki narsaga yaratilgan faol qarshilik; uni yengish yoki yo'q qilish uchun bo'lgan harakat, olishuv.
7. Ko'chma. Qarama-qarshi qarash, his-tuyg'u va shu kabilar to'qnashuvi, olishuvi [3, 946].

Kurash so'zining 1-leksik ma'nosi bosh ma'no bo'lib, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-leksik ma'nolar unga to'g'ridan to'g'ri bog'lanib kelgan, 7-leksik ma'no esa 6-leksik ma'no orqali bosh ma'noga bog'langan. Bosh ma'no genetik ma'noga teng kelsa, uni aniqlab olish oson. Chunki qolgan leksik ma'nolar genetik ma'nodan yuzaga kelgan hosila ma'nolar bo'ladi. Hosila ma'nolar yuzaga kelishi nuqtayi nazaridan genetik ma'noga bog'langanligi ko'rinadi. Biroq polisemantik so'z affiksatsiya natijasi bo'lsa, bu fikrni tatbiq etib bo'lmaydi. Chunki yasama so'zning semantik tarkibiga kiruvchi leksik ma'nolar yo o'zak so'z leksik ma'nolarining yasamasi, yo affiksning yasash imkoniyatlari natijasi bo'lishi mumkin. So'z ma'lum tushunchani ifoda etish zaruriyati bilan yasaladi va uning leksik ma'nolari shu zaruriyat bilan yuzaga

chiqadi.

Polisemantik yasama soʻz oʻzakning polisemantikligi hisobiga tarkib topadi. Bunda oʻzakning bosh maʼnosidan yasalgan maʼno yasama soʻzda ham bosh maʼno boʻlib qolaveradi. Yaʼni yasama soʻzlardagi yasama maʼnolarning oʻzaro bogʻlanishi markazi oʻzak soʻzning bosh maʼnosidan yasalgan maʼnoda boʻladi. Yasama soʻzning keyin yuzaga kelgan hosila maʼnolari yasama maʼnolarning birortasi taraqqiyoti natijasi boʻlib, oʻzini hosil qilgan yasama maʼnoga bogʻlanadi.

Buning uchun *kurashmoq*, yaʼni *kurash* otidan yasalgan soʻzning semantik tarkibiga eʼtiborni qaratishga toʻgʻri keladi.

Kurashmoq soʻzining maʼnolari:

1. Bir-birini yiqitib gʻolib chiqish uchun maʼlum qoida boʻyicha olishmoq, oʻzaro bellashmoq.
2. Sportning biror turi boʻyicha bellashmoq, musobaqalashmoq.
3. Biror narsaga erishish, biror maqsadni roʻyobga chiqarish uchun harakat qilmoq, faoliyat koʻrsatmoq.
4. Biror kimsa yoki narsaga faol qarshilik koʻrsatmoq, uni yengish yoki yoʻq qilish uchun chora koʻrmoq, harakat qilmoq.

Kurashmoq soʻzining semantik tarkibi *kurash* soʻzining semantik tarkibiga qiyos qilinsa, *kurashmoq* soʻzining 1-, 2-, 3-, 5-leksik maʼnolari *kurash* soʻzi leksik maʼnolaridan yasaliib olingan. 4-hosila maʼno 5-yasama maʼnodan yuzaga kelgan hosila maʼnodir. Shunga koʻra *kurashmoq* soʻzining bosh maʼnosi belgilanadi.

Tekshirishlar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilidagi deyarli barcha yasama soʻzlarda oʻzak soʻzning bosh maʼnosi yasaliish jarayonidan oʻtib, oʻz holatini saqlaydi. Baʼzan yasama soʻzda oʻzak soʻzning bosh maʼnosi olinmagan boʻladi. Bu holda yasama soʻzning bosh maʼnosi oʻzak soʻzdagi hosila maʼnolardan birining yasamasi hisoblanadi. Yaʼni oʻzak soʻzning navbatdagi hosila maʼnolaridan biri soʻz yasaliishida ishtirok etsa, u bosh maʼno hisoblanadi.

Koʻrdikki, bosh maʼno polisemantik soʻzning semantik doirasida olinib, sinxronik asosda belgilanadi. U soʻz leksik maʼnolari bogʻlanishining markazida turadi. Uning shakllanishi soʻzning hosila maʼnosi yuzaga kelishi tizimi qonuniyati bilan bogʻliq. Hosila maʼno vazifadoshlikka koʻra yuzaga kelgan boʻlsa, u deyarli bosh maʼno maqomini oladi. Leksikografik bosh maʼno soʻz leksik maʼnosining eng koʻp qoʻllanadigan maʼnosi hisoblanadi. Leksikografik bosh maʼno soʻz leksik maʼnosining eng koʻp qoʻllanishi va empirik xarakteri bilan belgilanadi. Tarixiy lugʻatlarda esa u genetik maʼnolarga teng keladi [4, 173–178].

2. Asos maʼno. Soʻzning bir yoki bir necha leksik maʼnosi bogʻlanib kelgan leksik maʼnodir. Asos maʼno referenti bilan unga bogʻlanib kelgan leksik maʼno referenti oʻzaro munosabatda boʻlib, bunda asos maʼno referentiga boshqa maʼnolar referenti subyektiv anglash nuqtayi nazaridan tobe holatda ekanligi bilan xarakterlanadi. Yaʼni soʻzning bir yoki bir necha leksik maʼnosi hosil boʻlishi uchun asos boʻlgan leksik maʼno asos maʼno hisoblanadi.

Masalan, yuqorida berilgan *kurashmoq* soʻzining semantik taraqqiyotiga eʼtibor berish mumkin. Uning 1-leksik maʼnosidan 2-, 3-, 5-leksik maʼnolar, 5-leksik maʼnosidan esa 4-leksik maʼno hosil boʻlgan. Shuning uchun 2-, 3-, 5-leksik maʼnolarga 1-leksik maʼno va 4-leksik maʼnoga 5-leksik maʼno asos maʼno hisoblanadi.

Yasama polisemantik soʻzning asos maʼnolari shu soʻz uchun oʻzak boʻlgan soʻzning semantik taraqqiyotiga qarab aniqlanadi. Masalan, *oqarmoq* feʼli *oq* sifatidan yasalgan, feʼldagi asos maʼnolar sifat turkumidagi asos maʼnodan yasalgan yasama maʼnolar boʻladi.

Oqarmoq feʼlining maʼnolari:

1. Oq tusga kirmoq, oq tus olmoq.
2. Qonsizlanib yoki qoni qochib, qizillikni yoʻqotmoq, rangi oʻchmoq, boʻzarmoq.
3. Oʻngmoq, rangini yoʻqotmoq, aynimoq (koʻpincha boʻyalgan narsalar haqida).
4. Yorugʻ boʻlmoq, yorishmoq.
5. Kosasi oqarmagan (topganiga baraka kirmagan) [5, 501].

Oq soʻzida 1- va 2-leksik maʼnolar asos maʼno hisoblanadi. *Oqarmoq* feʼlidagi undan yasaliib olingan 3- va 4-yasama maʼnolar ham asos maʼno hisoblanadi.

Oʻrni kelganda, shuni ham aytish kerakki, polisemantik soʻzlarning birinchi asos maʼnosi hamma vaqt bosh maʼnoga adekvatdir. Koʻrdikki, asos maʼno shunday leksik maʼnoki, polisemantik soʻz leksik maʼnolarining oʻzaro munosabatida unga boshqa bir yoki undan ortiq leksik maʼno toʻgʻridan toʻgʻri bogʻlanib keladi. Bunday bogʻlanishning shakllanishi uchun hosila maʼno yuzaga kelishi tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻladi. Polisemantik soʻz tarkibidagi dastlabki asos maʼno bosh maʼnoga adekvatdir.

3. Tobe ma'no. Asos ma'noga tobelanib, bog'lanib kelgan leksik ma'nodir. Tobe ma'noning tobelanishi nisbiy bo'lib, bosh ma'nodan boshqa har bir ma'no o'z o'ri bilan tobe ma'no hisoblanaveradi. Masalan, yana *kurashmoq* so'zi semantik tarkibini eslashga to'g'ri keladi. Undagi 2-leksik ma'no 3-leksik ma'noga nisbatan asos ma'no bo'lgani bilan, bosh ma'no, ya'ni 1-leksik ma'noga nisbatan tobe ma'nodir. Shu so'zdagi 4- va 5-leksik ma'nolar 1-leksik ma'noga nisbatan faqat tobe ma'no deb qaraladi.

Umuman, qaysi leksik ma'no qaysi leksik ma'nodan hosil bo'lsa, unga nisbatan hamma vaqt tobe ma'no maqomini oladi. Yasama so'zdagi yasama ma'nolar asos va tobelik maqomini o'zak so'zdan o'ziga ko'chiradi. So'zlardagi evfemistik va disfemistik leksik ma'nolar, figurativ va bog'liq leksik ma'nolar polisemantik so'z tarkibida faqat tobe ma'no maqomida keladi. Ular asos ma'no bo'lishi mumkin emas.

Ko'rdikki, leksik ma'nolar so'z semantik tarkibidagi o'zaro bog'lanib kelishiga ko'ra bosh ma'no, asos ma'no va tobe ma'nolarga bo'linib, bir-biridan o'zaro bog'lanishdagi tobe va asos bo'lish holati bilan farqlanadi. Bosh ma'nogina genetik ma'nodan iborat bo'ladi. U genetik ma'noning yasamasidan ham, hosila ma'nodan ham iborat bo'lishi kuzatiladi. Uning hosila ma'noda aks etishi genetik ma'noning etimologik ma'noga aylanishi bilan bog'liqligidir. Bunday holda u etimologik ma'noga aylangan genetik ma'noning dastlabki hosila ma'nosi ekanligi bilan xarakterlanadi.

Asos ma'no o'ziga bir va undan ortiq hosila yoki yasama ma'no bog'lanib kelgan hosila yoki yasama ma'no bo'ladi. Figurativ va bog'liq ma'nolar hamma vaqt tobe ma'nodir. Ularning maqomi hosila ma'no yuzaga kelishi tizimidan kelib chiqib belgilanadi.

XULOSA

Leksik ma'nolar tilning semantik tizimida o'zaro bog'langan va muayyan iyerarxik munosabatlar asosida tashkil topgan murakkab birliklar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bosh ma'no leksik birlikning semantik markazi bo'lib, boshqa ma'no turlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun asos vazifasini bajaradi. Asos ma'no va tobe ma'nolar esa so'zning tarixiy taraqqiyoti hamda nutqiy qo'llanish jarayonida yuzaga keladigan semantik o'zgarishlarni aks ettiradi. Shuningdek, genetik, etimologik, hosila va yasama ma'nolar o'rtasidagi munosabatlar tilning ichki rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Figurativ va bog'liq ma'nolar esa semantik tizimda asosan tobe ma'no maqomida namoyon bo'lib, ularning shakllanishi hosila ma'nolarning taraqqiyot bosqichlari bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, leksik ma'nolarning bosh, asos va tobe ma'nolar sifatida tasniflanishi so'z semantikasining ichki tuzilishini chuqurroq anglashga, ma'no taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlashga hamda o'zbek tilining leksik-semantik tizimini kompleks o'rganishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 144.
2. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2016. – B. 194.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 1037 (E–K).
4. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B. 288.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 844 (L–P).
6. Manba: Wikipedia <https://wikipedia.org>
7. Manba: <https://uz.researchers>